



MAKTAB O'QUVCHILARIGA FIZIKA FANINI O'RGATISHDA TA'LIMiy O'YINLARDAN FOYDALANISH

Abdiyeva Nilufar ozod qizi

Mengqobilova Ra'no Sirojiddinovna

A.Qodiriy nomidagi JDPU ning 2-kurs talabalari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktab o'quvchilariga fizika fani darslarini qiziqarli va yaxshi o'zlashtirishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish jarayoni o'yinlar misolida bayon etilgan.*


Kalit so'zlar: *Fizika, kasbiy mahorat, malaka, ko'nikma, mahorat.*

Bir nechta asrlar davomida aniq va tabiiy fanlar O'zbekiston zaminida keng rivojlanib, o'rta osiyo hududida dunyo intellectual markazi bo'lib kelgan. Yurtimiz hududida yuzaga kelgan birinchi va ikkinchi Renesans davri butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Mahmud Koshg'ariy, Abu Ali ibn Sino, Nasriddin Tusiy, Qozizoda Rumiy, Jamshid Koshiy, Abu Nasr Farobiy, Mirzo Ulug'bek va sharqning boshqa olimlarining ilmiy tadqiqotlari bilan jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo'shdi.

Buyuk ajdodlarimizning ilmiy an'alarini munosib davom ettirgan holda, XX asrning 40-yillaridan boshlab O'zbekistonda fizika fanini rivojlantirish jarayonida nufuzli ilmiy maktablar tashkil etildi, ularning vakillari xalqaro mukofotlarga sazovor bo'ldi va xorijiy akademiyalar a'zolari bo'lib saylandi. Eng muhim ilmiy yo'nalishlarni shakllantirishda Fanlar akademiyasining taniqli ilmiy maktablar yaratgan atoqli fiziklari muhim o'rin tutdi. Mamlakatimiz fizika maktabi qattiq jismlar fizikasi, atom yadrosi fizikasi, yarim o'tkazgichlar fizikasi, lazer fizikasi va issiqlik fizikasi sohalarida jahon ilm-faniga ulkan hissa qo'shdi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga za'monaviy o'qitish uslublarini joriy qilish, iqtidorli o'quvchilarni saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda amaliy natijadorlikka yo'naltirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, fizika fanining jamiyatdagi va zamonaviy texnologiyalardagi o'rni judayam katta bo'lib, bunda bizga fizika fanini yetuk mutaxassislari kerak bo'ladi. Biz bu mutaxassislarni maktabdanoq fizika fani dars jarayonlarida yetishtirib chiqarishimiz lozim. Buning uchun dars jarayonlari qiziqarli va o'quvchilarni yoshiga mos ta'limiy o'yinlardan iborat bo'lishi kerak. Bunda o'qituvchining kasbiy mahorati juda muhim rol o'ynaydi.

Kasbiy mahorat deyilganda, bitiruvchining yuqori darajadagi kasbiy ko'nikma va malakalarini egallaganligi tushuniladi, u shaxsning mehnat bozorida egallayotgan kasbi bo'yicha raqobatbardoshlik darajasida o'z aksini topadi, Kasbiy mahorat ishchi kuchlarining yuqori darajada moslashuvchanligini va yangiliklarni tez o'zlashtirishi,





yangi ishlab chiqarish sharoitlariga oz vaqt ichida o'ta olishi, faoliyat sohasini mustaqil tanlay olishi kabi sifatlar bilan belgilanadi.

Ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malaka darajasini tekshirishda qo'llaniladi. Asosan fizika aniq va tabiiy fan bo'lganligi tufayli o'quvchilar fizika fanida masalalar yechishda biroz qiynalishadi. Bunda o'quvchilarning tasavvur qilish qobiliyati juda muhim hisoblanadi. Shu paytda o'qituvchi o'quvchilarga masala shartini tushuntirishda yangi elektrotexnika (electron doska, noutbook va boshqa) vositalaridan foydalangan holda masalalar sodir bo'layotgan jarayonni videoroliklar orqali akslantirib bersa bolalarni masala shartini tushunib, mohiyatini anglashi tezda bo'ladi. Masala sharti mohiyatini tushunib yetgan bolagina masalani to'g'ri va bexato ishlay oladi. O'qituvchi o'tgan darslarni so'raganda yoki yangi mavzuni o'tish jarayonida turli xil tarqatma materiallar va ta'limiy o'yinlardan foydalansa o'quvchilarning shu fanga bo'lgan qiziqishi oshib, mavzuni o'zlashtirishi oson bo'ladi. O'qituvchi o'yinni tashkil qilishda asosan quyidagi tamoyillarga amal qilishi kerak:

- o'yin o'quvchilarning yoshiga mos bo'lsin;
- o'yin qiziqarli, soda, tushunarli, aniq bo'lsin;
- o'yin mavzuga mos, chuqur mazmunli bo'lsin;
- o'yinda iloji boricha ko'proq o'quvchi ishtirok etsin;
- o'yinda qiziqarli narsalar ko'p bo'lsin;
- o'yinda zerikarli va bitta narsa takrorlanib qolmasin;
- o'yinda (kam holatlarda) yangi elektronika qurilmalari qo'llanilsin;
- o'yinda o'quvchilarning muayyan malakalarini shakllantirsin;
- o'yin g'oliblari albatta, yaxshi sovrin va mukofotlar bilan rag'batlantirilsin.

Chips o'yini

Bu o'yinda o'quvchilarning o'tilgan mavzularda olgan bilimlarini sinash uchun o'tkaziladi. Bu o'yinni o'tkazishimiz uchun bizga ovoz kuchaytirgich(kolonkalar) va ichiga yozilgan chips paketlari kerak bo'ladi. O'yinda o'quvchilar uchta guruhga bo'linib olishadi. Guruhlarda esa oltitadan o'quvchilar soni bo'ladi. Ular doira shaklida turib olishadilar. Uchchala guruhga ham chips paketlari beriladi. Chips paketlari ichida esa fizikaga oid termin yoki fizika faniga oid savollar bo'ladi. Ovoz kuchaytirgich orqali birorta musiqa sadosi yangraganda, o'quvchilar raqsga tushgan holda doira bo'lib aylanishadi va shu jarayon davomida chps paketlarini bir-biriga uzatadilar. Qo'shiq to'xtasa, chips paketi kimda qolgan bo'lsa shu o'quvchi paket ichidan savolni olib unga javob beradi. Javob berolmagan o'quvchi esa o'yinni tark etadi. Oxirda qolgan o'quvchi esa o'yinning g'olibi hisoblanadi va unga mukofot topshirilishi shart hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.I Avazboyev, Y.U. Ismadiyorov. Kasbiy pedagogika. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent 2014.
2. T. Atamuratova, X. Ergasheva, M. Qurbonova. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. Toshkent "Yangi asr avlodi" 2008,

